



TABIIY MONOPOL KORXONALARNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Umarova Irodaxon Nuraliyevna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

ORCID: 0009-0005-0985-8614

Irodaumarova0202@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tabiiy monopol korxonalarini davlat tomonidan tartibga solishning institutsional asoslari yoritilgan. Tabiiy monopoliyalar sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar o'rtasida raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, tashabbuslarni rag'batlantirish, nodavlat notijorat korxonalarini faoliyatiga ko'maklashish borasida olib borilayotgan islohotlar, sohani davlat tomonidan tartibga solishning institutsional jihatlari yoritilgan va mavjud muammolar bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: monopoliya, tabiiy monopoliya, oligapoliya, raqobat muhiti, raqobat mexanizmi, "bozor holati", narx belgilash nazariyasi, daromadlilik, narxlar o'sishining cheklangan miqdori, narxlarning nisbiy o'sishi, ijtimoiy siyosat, atrof - muhit muhofazasi, iqtisodiy xavfsizlik.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ

Умарова Иродахон Нуралиевна

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Аннотация. В данной научной статье освещаются институциональные основы государственного регулирования предприятий естественных монополий. Освещены проводимые реформы по развитию конкуренции между предприятиями, работающими в сферах естественных монополий, защите прав потребителей, стимулированию инициатив, содействию деятельности некоммерческих организаций, институциональные аспекты государственного регулирования отрасли, разработаны научные предложения и рекомендации по существующим проблемам.

Ключевые слова: монополия, естественная монополия, олигополия, конкурентная среда, механизм конкуренции, "состояние рынка", теория ценообразования, рентабельность, предельная величина роста цен, относительный рост цен, социальная политика, охрана окружающей среды, экономическая безопасность.

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF STATE REGULATION OF NATURAL MONOPOLY ENTERPRISES

Umarova Irodaxon Nuraliyevna

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

Abstract. *This scientific article covers the institutional framework for state regulation of natural monopoly enterprises. The reforms carried out to promote competition among enterprises operating in the fields of natural monopolies, protect consumer rights, encourage initiatives, promote the activities of non-profit enterprises, the institutional aspects of state regulation of the industry are covered, and scientific proposals and recommendations have been developed on existing problems.*

Keywords: *monopoly, natural monopoly, oligopolia, competitive environment, competition mechanism, "market situation", pricing theory, profitability, limited price growth, relative price growth, social policy, environmental protection, economic security.*

Kirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ko'pgina soha va tarmoqlarda bo'lgani kabi tabiiy monopoliyalar sohalariga kiruvchi barcha tarmoqlarda ham chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ya'ni globallashtirish sharoitida: mamlakat infratuzilmasining asosiy qismini tashkil qiluvchi tabiiy monopoliyalar sohalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish; sof raqobat muhitini shakllantirish; iqtisodiyotning real sektorida barqaror o'sishni ta'minlash; sohalar ichida raqobatbardoshlikni oshirish; sanoat sohalarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini tezlashtirish; davlat tasarrufida bo'lgan sohalarni tarkibiy jihatdan qisqartirish; davlat ulushi saqlanib qolgan yirik tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi bo'g'inlarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Albatta, bu boradagi ishlarni amalga oshirishda davlat bosh islohotchi sifatida muhim o'rin egallaydi.

Respublikamizda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish borasida, oxirgi yillarda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-5630 - sonli Farmoni» (Farmon, 2019) va «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4126-sonli qaror»ining (Qaror, 2019) qabul qilinishi tabiiy monopol korxonalarini boshqarish va tartibga solishda yangicha zamonaviy ko'rinishdagi iqtisodiy - huquqiy jihatlarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini takomillashtirish bo'yicha (Farmon, 2023):

- monopoliyaga qarshi respublika organi bo'lib, o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Oliy Majlis Senatiga hisobdor hisoblanadi, har yili iqtisodiyotda raqobat muhiti va iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi holati to'g'risida hisobot berib boradi;

- o'z vakolatlarini davlat organlari va korxonalaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

-Raqobat qo'mitasi xodimlariga nisbatan qayta tashkil etilgan Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi xodimlari uchun nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash shartlari saqlanib qoladi.

a) 2023 yil 1 oktabrdan boshlab:

eksklyuziv huquqlar berilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning reestri (ro'yxati) joriy etiladi va ushbu reestrni yuritish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan kamsitmaslik shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat Raqobat qo'mitasiga yuklatiladi;

Raqobat qo'mitasi bitim shartlarini, tovarlar realizatsiya qilinadigan hududni va narxni belgilashga bir tomonlama ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga (ustun muzokara kuchiga) ega bo'lgan sub'ektlarni aniqlaydi va ular tomonidan ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni taqiqlaydi;

raqobatga qarshi kelishuvni tuzgan yoki o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatni sodir etgan yuridik yoki jismoniy shaxs bu haqda Raqobat qo'mitasiga birinchi bo'lib ixtiyoriy ravishda xabar qilsa, u raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikdan ozod etiladi;

davlat organlari davlat yordamini berishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini raqobat muhitiga ularning ta'sirini baholashdan o'tkazish uchun Raqobat qo'mitasiga majburiy tartibda kiritadi;

tovar, moliya va raqamli bozorda ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining rasmiy veb-saytlarida sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning monopol turlari bo'yicha namunaviy shartnomalarni (ofertalarni) joylashtiradi. Bunda, Raqobat qo'mitasi ushbu shartnomalarni doimiy ravishda raqobatni cheklashga va (yoki) iste'molchilarning, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va manfaatlarini kamsitishga olib keladigan shartlar kiritilganligi holatlari yuzasidan o'rganib boradi;

asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tabiiy monopoliyalar sohasida faoliyat olib borganda ular tabiiy monopoliya sub'ektlari hisoblanmaydi. Bunda, ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan narxlar (tariflar) asossiz oshirilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi, tadbirkorlar va iste'molchilar huquqlari va manfaatlarining kamsitilishiga nisbatan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari qo'llaniladi;

b) manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Raqobat qo'mitasining xodimlari davlat xaridlari, shu jumladan xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan, davlat-xususiy sheriklik hamda ishonchli boshqaruvga berish sohalaridagi tanlov (tender) komissiyalari tarkibiga kiritilmaydi;

v) raqobatga qarshi harakatlarga chek qo'yishda iqtisodiy ta'siri past holatlar bo'yicha birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlariga javobgarlik choralari qo'llamagan holda, profilaktik tushuntirish tadbirlarini amalga oshirish tartibi joriy etiladi;

g) Raqobat qo'mitasi tomonidan «Biz sizni eshitamiz» loyihasi joriy qilinadi va ushbu loyiha doirasida har chorakda kamida bitta tarmoqdagi tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan uchrashuv o'tkazish, raqobatga to'siq bo'layotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi;

d) raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida tashabbuslarni rag'batlantirish, nodavlat notijorat korxonalarini faoliyatiga ko'maklashish, ularni metodologik qo'llab-quvvatlash, texnik ko'mak taqdim etish, xodimlar malakasini hamda huquqiy bilimlarini oshirish orqali jamoatchilik nazoratini qo'llab-quvvatlash tizimi joriy qilinadi.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini nazorat qilish, tartibga solish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish davomida soha mutaxassisleri va iqtisodchi olimlar o'rtasida o'zaro ilmiy jihatdan tortishuvlar kelib chiqadi. Sababi, hech qaysi davlatda tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish va boshqarishda aniq bir o'zgarmas me'yorlar ishlab chiqilmagan va bunday o'zgarmas me'yorlarni bugungi kunda ishlab chiqish imkoni yo'q. Chunki tabiiy monopoliyalar sohalarini, asosan, texnologik va iqtisodiy jihatlariga ko'ra, bozorda o'z mavqegini saqlab turadi. Shuning uchun barcha davlatlar bunday holatlarda o'zlarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish va boshqarishda turlicha yondashuvlardan foydalanishadi.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini nazorat qilish tizimidan tartibga solish tizimiga o'tish orqali, ya'ni ular faoliyatini qaytadan tarkibiy jihatdan yuqori, o'rta va quyi bo'g'inlarga ajratish zarur. Bu orqali tabiiy monopoliyalarda yangi korxonalar va korxonalarining faoliyat yuritish uchun kirib kelishi natijasida sohada sog'lom raqobat muhiti shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, yangi tashkil etilgan korxonalar va korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bozorda erkin faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida zamonaviy institutsional islohotlar olib borish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Monopoliya tushunchasiga va uning iqtisodiy xususiyatlariga soha mutaxassisleri va iqtisodchi olimlar tomonidan har doim qiziqish juda yuqori bo'lib kelgan. Monopoliyaning mamlakat iqtisodiyotidagi ta'sirini o'rganish davomida, monopolist korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning mazmun va mohiyatini, iste'molchilar ehtiyojlarini qanday darajada qondirish holatlarini juda ko'plab manbalar tasdiqlaydi. Ushbu manbalarni o'rganish va tahlil qilish iqtisodiy adabiyotlarda "monopoliya" tushunchasi bir ma'noli emasligini ko'rsatadi. "Monopoliya" tushunchasining huquqiy jihatiga kelsak, yuridik adabiyotlarda bu hodisaga yetarlicha ahamiyat berilmagan.

Shu munosabat bilan tovar bozoridagi monopoliya va monopol munosabatlari tushunchasini o'rganish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, monopoliya sohasidagi kontseptual apparatni aniqlash ushbu mavzu bilan bevosita bog'liq bo'lgan doimiy tadqiqotlar doirasidagi eng muhim vazifadir.

Moiseeva (2000) monopoliya tushunchasi va monopoliya sohasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini ta'kidlab, monopoliyaga bo'lgan ta'riflarining xilma-xilligi, atamalarning ko'pligi, monopoliya turlarining tasnifi, dunyoda fikr va qarashlarning sezilarli darajada tarqalishiga haqli deb hisoblaydi. Bu soha monopoliyani tartibga solishning eng samarali usullarini ishlab chiqishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Monopolist mahsulot ishlab chiqarish va sotishning bir qismini o'z qo'lida to'playdi, iste'molchiga va bozor munosabatlari boshqa ishtirokchilariga monopoliya narxini o'rnatgunga qadar va buning natijasida monopoliya foyda olishini buyuradi. Monopolist o'zi ishlab chiqargan mahsulot narxni o'zi belgilaydi (Брокгауза, Ефрона, 2017).

Padisov (2006) tomonidan ta'kidlanganidek, iqtisodiy nuqtai nazardan monopoliya bozor ustidan ma'lum darajada hokimiyatga egalik qilishni anglatadi. Tadqiqot natijasida muallif bozor sharoitida monopoliya tushunchasi va asosiy belgilari sezilarli darajada o'zgargan degan xulosaga keldi. Hozirgi vaqtda monopolistik hokimiyat o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori foyda olish istagida emas, balki kutilgan foyda olish kafolatlarini maksimal darajada oshirish uchun bozorni "o'zi uchun" tashkil qilish istagida namoyon bo'ladi.

Mamlakatda tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarish va tartibga solish borasida raqobat siyosatining samaradorligini uch asosiy yo'nalishda o'rganiladi: qonunchilik va antimonopol tartibga solish amaliyoti; iqtisodiy konsentratsiya va uni tartibga solish muammolari; raqobat muhitini rivojlantirish mexanizmlari (Саидов, 2021).

Bir qator hollarda monopoliya huquqi berilmaydi, balki tabiiy ravishda vujudga keladi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tovar va xizmatlar bozorida ustun mavqeni egallash orqali o'rnatiladi (Райзберг, 2008).

Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida har bir tarmoq va sohalar rivojlanishi uchun erkin raqobat muhiti shakllantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni soha va tarmoqlarga jalb qilish uchun, qulay shart-sharoitlar yaratish kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda davlatning o'rni muhim hisoblanadi. Mundazam ravishda, sohadagi monopol holatlarni tartibga solish va boshqarish, tabiiy monopoliyalarni kamaytirish, ularni qayta tarkiblash (restrukturizatsiyalash) ishlarini olib borishda davlat bosh islohotchi vazifasini bajaradi (Саидов, 2022).

Kulin (2005) monopoliya mazmunini bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining o'z maqsadlariga va ob'ektga ta'sir qilish vositalariga ega bo'lgan o'zaro ta'siri sifatida ko'rib, monopoliya mazmunining to'rtta elementini belgilaydi, xususan: monopolistik munosabatlar sub'ektlari (monopoliya); korxonalarining o'zlari, davlat, begona firmalar va monopolistlarning etkazib beruvchilari, ya'ni monopolistlarning turli kontragentlari va uy xo'jaliklari); obyektlar (bozor sharoitlari va sub'ektlarning o'zlari bir-biriga nisbatan, chunki ular bir-biriga ta'sir qiladi); sub'ektlarning maqsadlari - ob'ektga ta'sir ko'rsatish vositalari (monopolistik past narxlar, shartnomalarda noqulay shartlar qo'yish, tegishli shartnomalar tuzish, bozorga kirish va chiqish uchun to'siqlar yaratish, lobbichilik, xodimlarning huquqlarini buzish).

Har qanday rivojlan, rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan davlatlarda tabiiy monopol tashkilotlari mavjud. Ma'lum bir tovar yoki xizmatga talabning yuqori ekanligi hamda iqtisodiy va texnologik jihatdan raqobat muhitini yaratish imkoni bo'lmagan holatda tabiiy monopoliya vujudga keladi (Саидов, 2021).

To'tiev (2003) monopoliyaning qonunchilik ta'rifi yo'qligini ta'kidlab, ingliz tilidagi manbalarga tayanib, shunday ta'kidlaydi: "Huquqiy yondashuvga ko'ra, "monopoliya" odatda muayyan harakatlar yoki biror narsaga bo'lgan mutlaq huquq sifatida ta'riflanadi".

Monopol bozorlarga tabaqalashgan yondashuv va tabiiy monopoliya sohalarini ajratish. Har qanday mamlakat iqtisodiyotida bozor mexanizmlari, shu jumladan, bozor orqali narx belgilash tizimi oqilona bo'lmagan sohalar mavjud. Tabiiy monopoliyalar, raqobatni rivojlantirishning iloji bo'lmagan yoki iqtisodiy samarasiz bo'lgan tarmoqlar aynan shunday sohalar qatoriga kiradi. Bunday tarmoqlarga nisbatan davlatning asosiy vazifasi ularning monopolistik faoliyati bilan kelishish hisoblanadi. Shu sababli tabiiy va davlat monopoliyalariga taalluqli bo'lgan xo'jalik sub'ektlariga nisbatan bevosita davlat tartibga solishi qo'llaniladi va ularning xo'jalik faoliyatlarini ishlab chiqarish va investitsiyalar, mahsulot sifati, narxlar (tariflar)ni rejalashtirish asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tartibga solishni hamda bunday tartibga solish xarajatlari bilan bog'liq dotatsiyalar taqdim etish imkoniyatini ko'zda tutadi (Саидов, 2021).

Iqtisodiy tadqiqotlarda, masalan, monopoliyalarning "neoklassik" nazariyasida bozor ulushi 100% ga ega bo'lgan firma monopoliya sifatida tan olinadi (Клюзина, 2005). Xuddi shunday, "advokat monopoliyasi" deganda advokatlarning sudda vakillik qilish sohasidagi mutlaq huquqlari va ulardan boshqa hech kimni ushbu faoliyatdan chetlashtirish tushuniladi.

Dunyo mamlakatlarida tabiiy monopoliyalarning tarmoqlari an'anaviy ravishda elektr energetikasi, temir yo'llar va quvur transporti, gaz va suv ta'minoti va boshqalarni o'z ichiga oladi. Mazkur tabiiy monopoliyalar mamlakat ichida barcha tarmoqlarning ajralmas texnologik elementi sifatida o'zini namoyon etsa, mamlakat tashqi siyosatida qo'shni davlatlar va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilishning asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi (Саидов, 2021).

Rijenkov (2015) monopoliyaning iqtisodiy xususiyatlari bilan bog'liqligidan tashqari, iqtisodiy terminologiyadan mustaqil ravishda, qonunchilik darajasida foydalanish uchun maqbul bo'lmagan huquqiy ta'rifni berishga harakat qilish imkoniyatini hisobga olib, bunday urinishlar muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emasligini to'g'ri ta'kidlaydi.

Biroq, qonunchilik darajasida monopoliya tushunchasi faqat iqtisodiy (bozor) munosabatlari sohasida mustahkamlanganligi sababli, uni qo'llashning boshqa barcha holatlarini qat'iy qonuniy emas, balki metaforik, doktrinal va boshqalar deb hisoblash mumkin. Ilmiy adabiyotlarda raqobat va monopoliyaga qarshi huquq sohasida monopoliya ham "bozor holati" sifatida qaralganda shunday yondashuv mavjud.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solishning ayrim jihatlariga e'tibor qaratamiz. Bular quyidagilardan iborat:

- tabiiy monopoliyalar sohalarining qolgan sohalardan ustunlik jihati - ular tomonidan tabiiy reruslardan erkin foydalanish imkoniyatining yuqori ekanligi. Tabiiy reruslardan asosiy foydalanuvchilar yirik korxonalar va korxonalar hisoblanadi. Bunday korxonalar va korxonalarining

iqtisodiy yoki texnologik jihatdan qolganlarga nisbatan afzalliklari mavjud bo'lganligi sababli, tabiiy monopol korxonalar bo'lib hisoblanadi;

- mamlakatning asosiy infratuzilmasini tashkil etuvchi soha va tarmoqlarda faoliyat yurituvchilar tabiiy monopol korxonalar hisoblanadi. Ularda zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi sababli, mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirish imkoniyati yuqori;
- ayrim turdagi tabiiy monopoliyalarga davlat tomonidan imkoniyat yaratilishining sababi, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksportga yo'naltirilganligi, bu orqali davlatning xalqaro munosabatlarni shakllantirishdagi ustuvorligi ta'minlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning uslubiy asosini tabiiy monopol korxonalarni boshqarishda mavjud bo'lgan muammolariga bag'ishlangan xorijiy olimlarning ishlari, ilmiy nazariy va amaliy qoidalar, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy hujjatlari tashkil etdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish va boshqarishni tashkil etishda institutsional jihatlarga etibor qaratish lozim. Tabiiy monopoliyalar iqtisodiyot tarmoqlarida yuzaga kelishiga qarab, institutsional (huquqiy) va tadbirkorlik ko'rinishida paydo bo'ladi. Bunday holatlarni bir - biridan farqlash kerak. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, institutsional (huquqiy) jihatdan tashkil topgan tabiiy monopoliyalar davlatlararo munosabatlarni (siyosiy yoki iqtisodiy) shakllantirishda ustun mavqeni saqlab turish uchun xizmat qiladi. Bu kabi tabiiy monopoliyalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun davlat tomonidan aholiga ma'lum ko'rinishdagi sub'sidiyalar ajratiladi. Tadbirkorlik maqsadida tashkil topgan tabiiy monopoliyalar iqtisodiy yoki texnologik jihatdan ustunlikka ega. Buning uchun davlat ular faoliyatini tartibga solish va boshqarishda turli mexanizmlarni qo'llash orqali tartibga solib turadi.

Iqtisodiyotda tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solishda, davlat o'zining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda, dastlab, iste'molchilar manfaatini himoya qilishni nazarda tutib, ishlab chiqilgan reja asosida tartibga solish usullari sifatida (soliqqa tortish, bojxona boji, kredit imtiyozlari, narx belgilash) chegara me'yorlarini belgilash orqali amalga oshiradi.

Qonun hujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta'sirini baholash⁹⁰:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan project.gov.uz portali orqali Qo'mitaga kelib tushgan **614 ta** normativ- (ex-ante) raqobat muhitiga ta'siri yuzasidan xulosalar tayyorlandi, shundan **285 ta (46 %)** holatda qonunchilik talablariga zid normalar mavjud ekanligi aniqlangan;
- respublika bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining qabul qilgan jami **201 315 ta** (ex-post) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlari raqobat to'g'risidagi qonunchilik normalariga muvofiqligi yuzasidan xatlovdan o'tkazildi. Shundan, **717 ta** qonunbuzilish holatlari aniqlandi;
- tuman va shahar hokimliklari tomonidan qabul qilingan hujjatlarni o'rganishlarda raqobat qonunchiligi talablarini eng ko'p buzgan holatlar Qoraqalpog'iston Respublikasida **127 ta**, Xorazm viloyatida **106 ta**, Jizzax viloyatida **94 ta**, Samarqand viloyatida **86 ta**, Qashqadaryo viloyatida **53 ta** va Buxoro viloyatida **42 ta** holatda aniqlangan va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli hokimliklarga Qo'mitaning hududiy organlari tomonidan tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Yuqoridagi kabi aniqlangan qonun buzilish holatlari bo'yicha Qo'mita tomonidan **jami 102 ta** mahalliy hokimlik va davlat boshqaruv organlariga monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlari normalari buzilishi bo'yicha ishlar qo'zg'atilgan bo'lib, **98 ta** ishlarni ko'rib chiqish

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитасининг мааълумотлари. <https://raqobat.gov.uz/uzb/qomita-hisobotlari/>

yakuni bilan tegishli tartibda Qo‘mitaning qaror va ko‘rsatmalari yuborilgan va **167 ta** raqobatga qarshi hujjatlar bekor qilingan.

2023 yilning 5 noyabr holatida Tabiiy monopoliya sub’ektlarining Davlat reestrda **11** turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha **89 ta** xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ro‘yxatga olingan⁹¹.

Tabiiy monopoliyalar sohalariga kiruvchi korxonalar va korxonalar faoliyatini tartibga solish va boshqarish davlat tomonidan belgilangan maxsus organlar tomonidan qonun hujjatlari asosida nazorat qilinadi.


Tabiiy monopoliya sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar xatti harakati natijasida bozorda raqobat muhiti buziladi. Ya’ni buning natijasida «bozor muhitining buzilishi» yuzaga keladi.

«Bozor holatining buzilishi» tushunchasi – bozorda raqobat muhitining buzilishi - iste’molchilar huquqi va boshqa ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko‘rsatuvchilarning manfaatlariga zid keluvchi holatlar yuzaga keladi. Shuning uchun «bozor holati buzilishi»ning oldini olish uchun u davlat tomonidan tartibga solib turiladi (1 - rasm).

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish va nazorat qilishda davlat aralashuvi muhim hisoblanadi. Davlat aralashuvining muhimligi shundaki, tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish va nazorat qilish borasida sarflangan barcha xarajatalar davlat tomonidan qoplanadi. Shu bilan qatorda, davlat aralashuvi natijasida shaffoflik, qonuniylik, adolatlilik tamoyillariga amal qilinadi.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini davlat tomonidan tartibga solish bevosita va bilvosita usullarda olib boriladi.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini bevosita tartibga solish usuli bozorda mavjud bo‘lgan ishtirokchilar faoliyati (xatti-harakati) ga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali bozorda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning bir xil talablar asosida faoliyat olib borishi, belgilangan imkoniyatlardan barchaning to‘laqonli foydalana olishi, me‘yoriy-huquqiy talablarga barchaning bir xilda amal qilishini ta‘minlanadi.



1-rasm. Tabiiy monopoliyalar sohalarini davlat tomonidan tartibga solish sabablari

⁹¹ Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитасининг мааълумотлари. <https://raqobat.gov.uz/uzb/qomita-hisobotlari/>

Yuqorida keltirilgan holatlarning oldini olish maqsadida, «O'zbekiston Respublikasida tovar va moliya bozorlarida, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish, oshkoralikni ta'minlash va davlat xaridi tartib-qoidalarini yanada takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish rejalashtirilgan (Фармон, 2020):

- davlat organlarining raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzuvchi qarorlarini bekor qilish va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan chora qo'llash bo'yicha takliflar kiritish;

- «Kartel» kelishuvlari va til biriktirishlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda aniqlash va ularga chek qo'yish;

- davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkil etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- erkin raqobat muhitini olib kirish mumkin bo'lgan, monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va uni rivojlantirishni nazarda tutgan holda amaldagi qonun hujjatlariga o'rnatilgan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish belgilangan».

Tabiiy monopoliyalar sohalarini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning quyidagi shakllari keng tarqalgan:

- tabiiy monopoliya sohalarini tarkibiy jihatdan tartibga solish orqali – amalda mavjud bo'lgan faoliyat turlarini takomillashtirish, yangi faoliyat turlari ochish, takrorlanuvchi xizmat turlarini qisqartirish, ma'lum faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish huquqini berish yoki inkor etish;

- faoliyat turlari bo'yicha litsenziyalarni bekor qilish yoki ro'yxatga olishning zamonaviy ko'rinishlarini belgilash;

- sohada faoliyat olib borish bo'yicha yangi mezonlar asosida ishlash tizimini belgilash;

- sohada faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliq stavkalarini belgilash, ma'lum tovar turlari bo'yicha narx belgilash strategiyalarini ishlab chiqish;

- sohada raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida yangi tashkil etilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy ko'mak mexanizmlarini belgilash.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda tovarning bozorda ustun mavqeni egallab turgan tadbirkorlik sub'ekti tomonidan belgilanadigan narx:

- tabiiy monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun zarur bo'lgan xarajatlar hamda foyda summasidan yuqori bo'lsa;

- faoliyati davomida asossiz xarajatlarning o'rnini qoplashga yoki mahsulot yoki xizmat ko'rsatish sifatini pasaytirish natijasida qo'shimcha foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa monopol yuqori narx hisoblanadi.


Tartibga solish maqsadlari va tartibga solish shakllarini umumlashtirgan holda tabiiy monopol korxonalar faoliyatini tartibga solish tizimi ishlab chiqildi (2 - rasm).

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish tizimini samarali tashkil etishda tartibga solishning maqsadi muhim hisoblanadi. Tabiiy monopoliyalar sohalarida iqtisodiy va boshqaruv samaradorligini oshirish, ijtimoiy adolat va atrof muhit muhofazasini ta'minlash, sohada tarkibiy islohotlar olib borish tartibga solishning maqsadi hisoblanadi.

Tartibga solish maqsadidan kelib chiqqan holda tartibga solish shakllari belgilangan. Tartibga solish shakllari sifatida iqtisodiy, tarkibiy va huquqiy shakllar ko'rsatilgan.

Har bir mamlakatda tabiiy monopoliya sohalarini tartibga solishda davlat xizmatlariga ehtiyoj seziladi. Chunki, har bir sohada aholi farovonligini oshirish, iste'molchilar manfaatini himoya qilish, tadbirkorlik muhitini yaratishda - tabiiy yo'l bilan raqobat muhitini shakllantirishning imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun davlat tomonidan ma'muriy usullarni qo'llash, qonuniy me'yorlarni ishlab chiqish, tartibga solish usullarini takomillashtirib borish orqali bozorda raqobat muhiti shakllantiriladi.

Shuning uchun barcha davlatlarda o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o'zining qonunchilik me'yorlariga ko'ra, mamlakatning kelgusida rejalashtirgan maqsadi va yuqori iqtisodiy samadorlikka erishish uchun, olib borayotgan siyosatiga qarab, tabiiy monopoliyalarning sohalarini tartibga solish modellari ishlab chiqiladi. Ayrim mamlakatlar esa, tabiiy monopoliyalarni tartibga solishda alohida belgilangan qonunlar qabul qilish orqali o'z maqsadlariga erishadilar.



2-rasm. Tabiiy monopol korxonalar faoliyatini tartibga solish tizimi

Jahon mamlakatlari amaliyotida tabiiy monopol korxonalar faoliyatini tartibga solish va boshqarishda ko'p modellardan foydalaniladi. Lekin amaliyotda qo'llanilayotgan modellarning umumiy mezonlari o'rganilib, ularni tahlil qilish natijasiga ko'ra, aksariyat modellar quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi: tabiiy monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarga narx me'yorlarini belgilash; tabiiy monopol korxonalarining daromad olish me'yorlarini belgilash; sohada narx (tarif)larni belgilash va tartibga solish.

Ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

Tabiiy monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarga narx me'yorlarini belgilash. Mazkur usulda tabiiy monopoliyalarning sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan

xizmatlar uchun narx me'yorlarini belgilash orqali iqtisodiy samara keltiruvchi miqdorda ishlab chiqarish hajmi yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdori belgilanadi. Ushbu usul orqali quyidagilarga erishish mumkin: tabiiy monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi belgilanadi va bu orqali sifatli mahsulot hajmi ishlab chiqariladi (bunda, buyurtma berish orqali amalga oshiriladi); ko'rsatilgan xizmat turlari qisqartiladi (maxsus buyurtmalar asosida tashkil etiladi) va xizmat ko'rsatish turlari alohida bo'g'inlarga ajratiladi; mahsulot ishlab chiqarish, yetkazib berish, xizmat ko'rsatish faoliyati elektron holatda amalga oshiriladi.

Mamlakat infratuzilmasining asosiy bo'g'inlarida faoliyat olib borayotgan tabiiy monopoliyalar sohalarini nazorat qilish va tartibga solishga qaratilgan qonunlar mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan. Iqtisodiyot ko'p yillar oldin qabul qilingan qonunlarni qaytadan ko'rib chiqishga ehtiyoj sezmoqda. Shu sababli ko'p yillar oldin qabul qilingan qonunlar bugungi kun talabiga to'la javob bera olmaydi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda inson qadrini yuksaltirish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda har qanday soha va tarmoq faoliyatini rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlar, birinchi navbatda, inson manfaatini qadrlash, iste'molchilar huquqini himoya qilish, sohalarda samarali va sof raqobat muhitini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida tadbirkorlik qobiliyatini oshirishga qaratilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish va boshqarish borasida institutsional me'yorlar va qabul qilingan qonunlar orqali sohalarda raqobat muhitini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: sohadagi monopol vaziyatlarni qonunchilik asosida tartibga solish amaliyoti; sohada yuzaga kelayotgan iqtisodiy konsentratsiya holatlarini nazorat qilish va tartibga solish jihatlari; sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mexanizmlari; iste'molchilar huquqini himoya qilish mexanizmlari.

Tabiiy monopoliyalar sohalarida raqobat muhitini sog'lom shakllantirish, iste'molchilar huquqini himoya qilish maqsadida qabul qilingan qonunlar, qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ilg'or xorij mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda xalqaro ekspertlar tomonidan o'rganilgan holda qabul qilinmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida tabiiy monopoliyalar sohalarini nazorat qilish borasida qabul qilingan qonun va qarorlarda ko'proq huquqiy munosabatlar urg'ulangan, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilmagan hamda iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri shakllanishiga to'siq bo'luvchi holatlar mavjud edi.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita sabablari mavjud. Chunki turli sohalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarga iste'molchilarning ijtimoiy qatlamini hisobga olib davlat tomonidan narx (tarif) larni belgilash va tartibga solish usullari qo'llaniladi. Shu bilan birga, mazkur sohalarda davlat uchun strategik ahamiyati yuqori bo'lgan tarmoqlar hisoblanadi.

Dunyo iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu rivojlanish tendensiyasidan qaysi davlat orqada qolsa, albatta shu davlatning iqtisodiyoti bir necha yillarga rivojlanishdan orqaga qoladi. Shu sababli, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi amalda bo'lgan qonunchilik va kelgusi istiqbolni o'ylab qabul qilinayotgan qonun va qarorlar qanchalik mukammal, shaffof va adolatli bo'lishiga bog'liq.

Mamlakat qonunchiligida samarali va sog'lom raqobat muhitini ta'minlashda quyidagilar e'tiborga olinishi muhim hisoblanadi:

- faoliyat sohalarida yangi korxonalarini tashkil etishdagi sun'iy to'siqlarni olib tashlash va yangi tashkil etilayotgan korxonalar uchun imkoniyatlar yaratish;
- faoliyatini yangidan boshlagan korxonalariga bozorga kirish va yangi shartnomalar tuzishda huquqiy jihatdan ustunlik berish;

- raqobat muhiti yo'q bo'lgan bozorlarda yangi faoliyat turlarini tashkil etish borasida yangi tashkil etilgan korxonalar uchun moliyaviy mablag'larni shakllantirishda davlat tomonidan imkoniyat yaratishning huquqiy bazasini takomillashtirish;
- bozorda ayrim korxonalar uchun asossiz yengilliklar va qo'shimcha imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechish;
- tabiiy monopol tarmoqlar bo'yicha tarkibiy-tuzilmaviy o'zgartirishlar kiritish orqali ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish;
- bozorga kirish huquqini beruvchi korxonalar ustav kapitalidagi mablag'larning miqdorini kamaytirish bo'yicha huquqiy me'yorlarni yangilash;
- davlat tomonidan korxonalar faoliyatini asossiz tekshirish amaliyotidan va bozorda raqobatni cheklashga doir huquqiy me'yorlardan voz kechish.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

Saidov M.S. (2021) *Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies* // *International Journal of Advanced Research in IT and Engineering*. №11. 45-58 ISSN: 2278-6244 <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>

Saidov M.S. (2023) *Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan* // *INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT* ISSN (electronic): 2620 - 6269/ ISSN (printed): 2615 - 4021 Vol. 5 No. 1 | January. P. 38-52. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>

Saidov M.S. (2023) *Ways of introduction of modern management mechanisms in the electric power sector of Uzbekistan* // *International Journal of Business Diplomacy and Economy* Volume 2, No 1 | Jan. P. 98-110. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/977/843>

Брокгауза Ф.А., Ефрона И.А. (2017) *Энциклопедический словарь Ф.А. Брокгауза и И.А. Ефрона [Электронный ресурс]: по 41-томному изданию 1890 года. – Режим доступа: <http://www.encyclopedia.narod.ru>. – Дата доступа: 24.10.2017*

Клюзина, С.В. (2005) *Монополия и локальная монополия как ее тип: история вопроса, методология, теория и практика: автореф. дис. ... д-ра экон. наук / С.В. Клюзина. – Иваново, – 41 с. – С. 17.*

Кулин, А.А. (2005) *Монополии в современной экономике России: Сущность, особенности, антимонопольное регулирование: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.01 / А.А. Кулин. – Воронеж, – 172 с*

Қарор (2019) *Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси монополияга қарши курашиш қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-4126-сонли Қарори.* <https://lex.uz/docs/4178984>

Моисеева, Е.Г. (2000) *Монополизм и его регулирование в условиях реформирования экономики России: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.01 / Е.Г. Моисеева. - Нижний Новгород, – 177 с. – С. 3*

Падисов, С.Г. (2006) *Монополии и антимонополистическая политика: тенденции развития в современной экономике: дис. ... канд. эконом. наук: 08.00.01 / С.Г. Падисов. – Петрозаводск, – 214 с.*

Райзберг, Б.А. (2008) *Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – 8-е изд., доп. и испр. – М.: ИНФРА-М., – 479 с.*

Рыженков, А.Я. (2015) *Понятие монополии в российском законодательстве и правовой доктрине / А.Я. Рыженков // Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 5, Юриспруд. – № 2 (27). – С. 10 – 14.*

Саидов М.С. (2021) *Табиий монопол ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириш // Иқтисодиёт ва таълим / 2021 йил 4-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>*

Саидов М.С. (2021) Табиий монопол ташкилотларни бошқаришнинг назарий-услубий жиҳатлари // Иқтисодиёт ва таълим / 2021 йил 2-сон. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>

Саидов М.С. (2021) Табиий монополияларни бошқариш ва тартибга солишнинг хоризж тажрибаси // Иқтисодиёт ва таълим / 2021 йил, 5-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>

Саидов М.С. (2021) Ўзбекистонда табиий монопол ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf

Саидов М.С. (2022) Глобаллашув шароитида табиий монопол ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишнинг институтчионал хусусиятлари // «Таълим – тарбия жараёнига инновацион ёндашувлар, муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика илмий – амалий конференцияси. -Тошкент. 197-203 б. <https://zenodo.org/records/6585036>

Саидов М.С. (2023) Электр энергетика тармоғини бошқаришдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар // №1. 183-194 б. file:///C:/Users/Acer/Downloads/19_Saidov+183-194.pdf

Саидов М.С. (2023) Электр энергетика тармоғини тартибга солиш ва бошқаришнинг иқтисодий хусусиятлари // Иқтисодиёт ва таълим // №1. 288-292 б. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/950/863>

Саидов М.С. (2023) Электр энергетикаси соҳасининг бошқарув самарадорлигини ошириш масалалари // Иқтисодиёт ва таълим // №3. 2023 йил, 244-251 б. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1129/1016>

Тотьев, К.Ю. (2003) Конкурентное право (правовое регулирование деятельности субъектов конкуренции и монополий) / К. Ю. Тотьев. – М.: РДЛ, – 480 с. – С. 32.

Фармон (2019) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 январдаги «Давлат активларини бошқариш, монополияга қарши курашишни тартибга солиш тизимини ва капитал бозорини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПФ-5630 - сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4160392>

Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 июлдаги «Рақобат муҳитини янада ривожлантириш ва иқтисодиётдаги давлат иштирокини қисқартириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-6019 -сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4887654>

Фармон (2023) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 6 июлдаги «Маъмурий ислохотлар доирасида рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида» ПФ – 108-сонли Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/6525087>